

SVILIZATSIYADAN CHETDA QOLGAN DAVLATLAR VA ULARNING O'RTASIDA TEXNOLOGIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH!

Yusupova Mashhura Sherzod qizi

*Samarqand Viloyati Payariq Tumani 1-Son Kasb Hunar Maktabi
Bitiruvchisi*

Kalit so'zlar: *mobil tarmoqlar, texnologiya, svilizatsiya, zarar, GLOBALLASHUV.*

Annotatsiya: *Bizga ma'lumki hozirgi kunda texnologiya sohasi insonlar o'rtasida turli xil ko'rinishda foydalanilmqda. Natijada ularning ta'siri ham, salbiy va ijobiy oqibatlarga olib kelmoqda. Biz esa mobil tarmoqlarning zararli yoki zararsiz ekanini emas uning insonlar o'rtasida globallashuvini ko'rib chiqamiz.*

Hozirgi kunda texnologiya sohasi insonlar tomonidan, jadal rivojlantirilib kelmoqda. Albatta bu dunyo reytingida texnologiya sohasining ilgarilab ketishiga imkoniyat yaratmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki insonlar kesimida unga bo'lgan ehtiyoj ham ortib borayapti. Lekin dunyo svilizatsiyasidan ortda qolgan davlatlar soni ham oz emas, lekin, ana shular ham mobil tarmoq va texnologiyalarsiz hayot kechirib kelmoqda.

Albatta, bundan bilish mumkunki, mobil tarmoqlar juda ko'p davlatlarda rivojlangan bo'lishiga qaramasdan, umuman internetdan foydalanishni bilmaydigan insonlar ham oramizda yashab kelmoqda. Ming afsuskiy bu davlatlar shu tartibda ketadigan bo'lsa ular rivojlanishdan orqada qolib ketadi. Ko'plab o'rgangan ma'lumotlarim orqali shuni ayta olamanki, hatto shirinlik iste'mol qilib ko'rmagan insonlar ham borligini angladim. Aynan rivojlanib kelayotgan dunyo svilizatsiyasi nahotki shu muammolarga jimgina ko'z yumib kelsa;

Erkaklar, ayol-qizlar buyoqda tursin bolalar ilm-fandan taraqqiyotdan, rivojlanishdan chetda qolib yashab kelmoqda. Ularning dunyoda nimlarga bo'layotganidan xabari yoq va insonlarning fikrlashi judayam tor, hattoki yozishni bilmedigan bolalar soni ham judayam ko'p.

Bu ko'rinishdagi kichik qishloqlarning soni ham talaygina. Men bu muammolarni mavzuga misol tariqasida keltirdim va mening maqsadim texnologiya sohasidan ancha ortda qolib ketgan davlatlarda ham bu sohani takomillashtirish:

Ularga ham sivilizatsiya yetib borishi kerak va ular ham bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishga haqli. Shundagina ularda ham buyuk kashfiyotlarni kashf qilish istagi albatta tug'iladi.

Aynan internet, mobil tarmoqlar uyoqda tursin hattoki elektr chiroqlari ham yetib bormagan kichik- kichik qishloqlar ham bor.

Misol uchun BMT(Birlashgan Millatlar Tashkiloti) tomonidan royxatga olingan LDC ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning eng past ko'rsatgichlariga ega bo'lgan tashkilot sifatida qabul qilingan. LDC tushunchasi 1960-yillarning oxirida paydo bo'lgan. Kambag'allik uch yil davomida o'rtacha ko'rsatgichda yalpi milliy daromad asosida tartibga solinganidan ham ko'rishimiz mumkim.

Undan tashqari Madagaskar orollarining ham juda ko'p qishloqlari ham bu muammolardan qiynalishadi. Bularning oldi olinmas ekan sivilizatsiya rivojlanishi keskin tushib ketadi.

Juda ko'pchilik insonlar aynan zamon bilan rivojlanishni hohlashadi-yu buning ba'zi sabablar bilan imkoniyati bo'lmaydi. Iqtidorli yoshlarni kashf qilish uchun ham mamlakatda texnologiya sohasi juda yuqori rivojlangan bo'lishi lozim.

VA mamlakatda bu sohani rivojlantirish uchun u o'zining erkinliklariga va professional kadrlariga ega bo'lishi zarur!

Xulosa qilib aytganda, shu bilan birgalikda, texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi va sohaning malakali mutahasislarga ehtiyoji oshishi oliy ta'lim muassasalarida "Soliq va raqamli texnologiyalar" bo'yicha alohida yo'nalishini tashkil etishni taqozo qilmoqda. Bu eng avvalo, tizimning salohiyatli kadrlar bilan ta'minlanishiga yana keng yol ochib beradi.

Jahon tajribasi ko'rsatib turibdiki texnologiya sohasi eng tez rivojlanayotgan sohalar qatoriga kiradi.